



## “QASOSKORNING OLTIN BOSHI” ASARI TAHLILI

**Mahmudjonova Fariza,**

*Oriental universiteti Samarqand kampusi Kechki ta'lim shakli  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bosqich talabasi*

**Ilmiy rahbar: Bozorova Gulruh Ravub qizi,**

*Tillar -I kafedrasida o'qituvchisi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18646183>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek bolalar adabiyotida tarixiy-sarguzasht roman janrini boshlab bergan asar - “Qasoskorning oltin boshi” romani tahlil qilinadi. Xudoyberdi To'xtaboyevning ushbu asaridagi bosh qahramon - Namoz botirning qahramonligi, adolatparvarlik masalalari va asar badiiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** bolalar adabiyoti, tarixiy-sarguzasht roman, badiiy to'qima, adolatparvarlik, bolalar romanchiligi.

Xudoyberdi To'xtaboyevning “Qasoskorning oltin boshi” romani 1980-yil chop etilgan va asar nashr qilinishi bilan tez orada kitobxonlarning muhokamalariga sabab bo'ldi. Kitobga so'z boshini O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirmqul Qodirov yozgan. Unda XX asr boshlarida Zarafshon vodiysida ro'y bergan Namoz botir boshchiligidagi xalq ozodligi harakati el og'ziga tushgani, mashhur rus yozuvchisi Anna Almatinskaya “Zulm” trilogiyasida Namozni xalq qasoskori deb baholagani, Abdulla Qodiriy Namoz haqida roman yozmoqchi bo'lib, Samarqandga va Namoz tug'ilgan qishloqqa borgani va o'sha payt uni tirik bo'lgan opasi O'g'iloy bilan uchrashgani, va undan ko'p narsalarni so'rab bilgani, keyinchalik Izzat Sulton “Noma'lum kishi” she'riy dramasi bosh qahramoni Niyos siymosida aynan Namozni gavdalantirgani haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xudoyberdi To'xtaboyev qahramoni yurtiga borib, uni ko'rgan-bilgan barcha odamlarni topib, Namoz botir hayotiga oid hamma narsani astoydil o'rgandi. 1980-yilda hali sho'ro saltanati dag'dag'alari kuchda turgan bir paytda xalqimiz milliy ozodlik harakatiga yorqin bir sahifasini shu qadar dadillik bilan qalamga olishning o'zi oson ish emas edi. Ammo adib ushbu romani bilan hali qo'rqqoqlik psixologiyasidan qutulolmayotgan qanchadan qancha hamkasblablari, adabiyotshunoslar va tarixchilarga ham turtki boldi. Chunki o'sha paytlar Namoz harakati haqida bu qadar jiddiy ma'lumotlarga asoslanib asar yaratish uchun yozuvchidan nihoyatda katta jasorat talab qilinardi. O.Sharafiddinov asarni batafsil tahlil qilib, asar haqida o'z maqolasida “roman to'rt yillik mashaqqatli izlanishning, tig'iz ijodiy mehnatning samarasidir. Adib badiiy to'qima yordamida ijodiy fantaziyasining quvvati bilan hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirdi”, - deb yozgan.



“Qasoskorning oltin boshi” asari nafaqat bolalarning balki, katta yoshdagi kitobxonlarning sevimli asariga aylangan. Ushbu asarga sof bolalar adabiyoti nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, u o‘smirlik yoshidagi kitobxonlarga mo‘ljallangan asar. Namoz botir o‘smirlar uchun eng havas qilgulik qahramon, chunki u ozodlik uchun tolmas kurashchi, mehnatkash bechora xalq dardiga malham, o‘z yurtining milliy ozodligi uchun kurashgan xalq qasoskoridir.

Namoz obrazi nafaqat yosh kitobxonni, balki muayyan hayot tajribasiga ega bo‘lgan katta yoshli kitobxonni ham qanotlantira oladigan darajada ishonarli chiqqan. Namoz o‘zigagina qilingan nohaqliklar zulmlarga qarshi emas, balki ezilgan mehnatkash xalqqa qilinayotgan jabr-zulmlarga qarshi xalq qasoskori darajasiga yetishishi ham romanning dastlabki o‘n bobida yetarlicha asoslangan. Namozning romanda tasvirlangan haqiqiy yigitlarga xos mardona sifatleri boshqa turli asardagi voqealarda ham nihoyatda ishonarli va ta’sirchan tasvirlangan. Namoz qanchalar aqlli, mard va fidoyi inson bo‘lsa, shu qadar beg‘ubor, ishonuvchan hamdir. U yonidagi yigitlar necha bor pand bergan, sotqinlik qilsa ham qayta xudi o‘ziga ishongandek ishonar edi. Aslida bu ham mardlarga xos vallomatlik, bag‘rikenglik xususiyatidir.

Yozuvchi romanda yovuzlik kuchlari va ezgulik tarafdorlarining ko‘plab vakillari obrazlarini yaratadi. Biroq bu obrazlar tasvirida u hamisha xolislikka intiladi. Romanda Namoz tarafdorlari qanchalik ko‘p bo‘lsa, g‘animlar ham ulardan oz emas, uni doim qo‘llab-quvvatlagan hamqishloqlari-yu qanchadan qancha turli millat vakillari bir tomon bo‘lsa, xalq qonini so‘rish evaziga kun ko‘rib yurgan amir-u amaldorlar, qozi-yu to‘ralar, pul va boylik dardida ularning hamtavoqlariga aylangan sotqinlar bir tomon. Namoz botir tiriklik paytidayoq ko‘rsatilgan mardlik va jasorati bilan kambag‘allar himoyachisi sifatida el og‘ziga tushib, u haqda qo‘shig‘-u dostonlar yaratilgan va afsonaviy xalq qahramoniga alanib ketgan. Xudoyberdi To‘xtaboyev esa aynan aniq faktlar va dalillarga tayanib, ushbu romanni yozgan. Ushbu asarda yozuvchi adolat va adolatsizlik, sodiqlik va sotqinlik, insoniylik va jasoratni aniq yoritib bilgan. Asarda Namoz botir jasoratini yorqin ifodalagan yozuvchi, aslida, o‘zi ham o‘sha asar qahramonidan kam bo‘lmagan jasorat bilan ushbu asarni yoza bilgan. Chunki asar mustaqillikdan oldin yozilgan bo‘lib o‘sha paytdagi ancha muncha yozuvchilar yozishni xohlab o‘ziga jur‘at topolmagan bir paytda ushbu jasorat haqidagi asarni jasorat bilan yozdi. Balki yozuvchi Namoz botir qahramonligidan ilhom olgan holda, jasorat ko‘rsatgandir.

**Xulosa.** Xalqimizning shonli va boy tarixida shunday jasur va mard insonlar bo‘lgan va ular haqida ko‘plab asarlar yozilgan. Bundan 125 yil muqaddam o‘zining qisqa va jangovar umri davomida xalq orasida afsonaviy qahramonga aylanib ulgurgan Namoz botir ana shunday qayta-qayta tilga olinishga arziydigan haqiqiy o‘zbek o‘g‘lonlaridan



biridir. Men bu asarni o'qib chiqqanimdan keyin va asar yaralishi haqida o'rganganlarimdan kelib chiqqan holda nafaqat asar qahramoni Namoz botir, balki asar yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev ham chin ma'noda adolatparvar va jasoratli degan xulosaga keldim. Keng kitobxonlar ommasida katta qiziqish uyg'otgan ushbu asar ababiyotimiz xazinasiga qo'shilgan nodir javohirlardan biridir. Asarni barcha kitobxonlarga tavsiya qilaman.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xudoyberdi To'xtaboyev. Qasoskorning oltin boshi. T: Yangi asr avlodi, 2016.
2. Lutfullayev J. "Qasoskorning oltin boshi" - tarixiy-sarguzasht roman sifatida. "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjumani. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/download/1784/1626/3305>
3. Namoz Botir kim bo'lgan? Tarixchi O'ktam Ikromov bilan suhbat. "Oqdaryo ovozi" gazetasi veb-sahifasi.
4. Sharofiddinov O. Botirlarning umri boqiy (1981)/Dunyo tanigan adib
5. Sattorov M. Namoz polvon haqida qo'shiq (1981)/dunyo tanigan adib.-B98-100
6. Qodirov P. Botirlarga o'lim yo'q (1981)/dunyo tanigan adib.
7. Murodov SH. Namoz botir /dunyo tanigan adib(2000)-B.103-107.

